

JALOLIDDIN RUMIYNING IJTIMOYIY QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASI MASALALARI

Mirzayeva Nigina Olimovna
SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning jahon miqyosida e'tirof etilgan yoshlar tarbiyasiga oid sog'lom e'tiqod, yuksak ma'naviyat, irfoniy tafakkur va komil insonni tarbiyalash kabi gumanizm, altruizmga doir g'oyalarning mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье научно и теоретически анализируются содержание и сущность идей гуманизма, альтруизма Джалалуддина Руми, таких как здоровая вера, высокая духовность, мистическое мышление, воспитание совершенного человека.

Abstract: In this article, the content and essence of Jalaluddin Rumi's ideas of humanism, altruism, such as healthy faith, high spirituality, mystical thinking, and the education of a perfect person, are scientifically and theoretically analyzed.

Kalit so'zlar: adolat, sog'lom fikr, sog'lom e'tiqod, axloq, gumanizm, altruizm, ma'naviyat, ma'rifat.

Ключевые слова: справедливость, здравый смысл, здоровая вера, мораль, гуманизм, альтруизм, духовность, просвещение.

Key words: justice, common sense, healthy belief, morality, humanism, altruism, spirituality, enlightenment.

Ma'naviyatli jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqningertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi. Millatning asrlardavomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy-madaniy rivojlanishisiz ma'naviyatni tasavvur qilish qiyin. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Barchamiz "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" degan yagona maqsad atrofida birlashib, mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etgan holda, fidokorona mehnat qilib, farzandlarimiz, kelgusi avlodlar uchun gullab-yashnagan, ozod va obod mamlakatni meros qilib qoldiramiz". O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish, xalqni ma'naviyatli qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir. Ayni paytda o'zbek xalqining ko'p asrluk boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o'rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. "... Xalq ma'naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi". Asrlar mobaynida xalqimizning ma'naviyat, axloq, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasiva islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Hozirgi tarixiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy sohalarqatori ma'naviy sohada ham o'zgarishlar, yangilanishlar sodir bo'ldi. Yurtimizda ma'naviy sohadagi yutuqlar – o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni, madaniyatimiz va an'alarimizni, din va e'tiqodimizni, tilimiz va ma'naviyatimizni qayta tiklash va rivojlantirishdan, huquqiy davlatchilikni barpo etishdan iboratdir.

Mamlakatimizda buyuk ajdodlarimizning ilmiy-nazariy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ezgu an'alarimiz ruhida tarbiyalash bo'yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda. "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qarataшимiz kerak". Bu borada Jaloliddin Rumiyning jahon miqyosida e'tirof etilgan yoshlar tarbiyasiga oid sog'lom e'tiqod, yuksak ma'naviyat, irfoniy tafakkur va komil insonni

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

tarbiyalash kabi gumanizm, altruizmga doir g'oyalarining mazmun-mohiyatini bugungi kun nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Farzand tarbiyasi masalasiga azaldan Sharq xalqlarida alohida e'tibor qaratilgan. Ijtimoiy hayotimizda farzand tarbiyasi bilan bog'liq jarayonlarda bola ma'naviy-axloqiy olamining ijobiyva salbiy hollariga duch kelamiz. Inson ma'naviy-axloqiy olamidagi ijobiy holatlar: halol mehnat, xolis va ezgu ishlar, el-yurtiga naf yetkazadigan, uning g'amu tashvishi bilan yashaydigan, bag'rikeng, fidoyi, halol-pok, vijdonli, hushyor, jonkuyar, mehr-oqibatli, tiriklik mazmunini teran anglagan, nafaqat bugungi kun lazzati, oxirat obod bo'lishi haqida o'ylyashaydigan inson.

Jaloliddin Rumi ta'limoti nazariy jihatdan olibqaralganda, "xom edim, pishdim, yondim", ya'ni "kecha – bugun – erta" degan tizimga asoslangan. U o'z g'oyasi va qarashlari orqali ajdodlar merosidan foydalanib bugungi faoliyatni belgilash va o'z mohiyatini anglab, ertangi avlod tarbiyasiga asos yaratish-ni ta'kidlaydi. Uning ijodi ko'proq shaxs shakllanishining o'spirinlik davri (14-16 yoshdan 18 yoshgacha)dan boshlab anglanadi va tushunilaboshlanadi. Chunki bu yoshdan boshlab shaxs ayniijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglagan, ular haqidachuqur mulohaza yurgiza oladigan, ma'naviy-axloqiytasavvur va idrok hosil qilgan sanaladi. Ixtiyoriy va barqaror diqqat esa ular ma'naviy tafakkurining shakllanishiga imkon yaratadi, natijada ular ijtimoiy munosabatlar borasida mantiqiy asosli fikr yuritaboshlaydi.

Jaloliddin Rumi axloqiy qadriyatlarga oid qarashlarida ota-onaning mukarramligi, oilaning muqaddasligi masalalariga ham keng to'xtalib o'tilgan. U insonning buyuklik darajasini uni qanchalar asl xonadonda tavallud topganiga qarab aniqlab bo'lmaydi, ammo insonni so'nggi manziliga kuzatish darajasiga qarab uning kimligini tasavvur etish mumkin deya insoniylik xususiyatlari xususida ham fikr yuritadi. U otalik burchi haqida so'zlarkan, shunday deydi: "Bir kishi o'g'lini sevib erkalarkan, otalik, oqibatlilik, vafo, marhamat, shafqat kabi tuyg'ularni xayoliga keltirmasada, bularning barchasi uning mehridan pinhondir", deya nasihat qiladi. Onaning buyukligi, mukarramligi xususida Abdurahmon Jomiy: "Men onamni nega sevmayki, u meni bir muddat o'z jismida, so'ng uzun hayot quchog'ida va o'lgunga qadar qalbining shafqat xonasida tashigandir. Unga hurmatsizlik qilishdan ham yomonroq narsa bo'lishi mumkinmi?" desa, Bahovuddin Naqshband: "Bizning qabrimizni ziyorat qilgani kelganlar oldin onamizning qabrini ziyorat qilsinlar", - deya vasiyat qilgan ekan. Abulboqi Go'lpinarli esa: "Onalar Yaratuvchining marhamatidan eng ko'p nasiba olgan zotlardir", - deya onalarga bo'lgan ehtiromini izhor etadi.